



ISSN (E): 2181-4570

AHOLINI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASHDA SUG'URTALASHNING ZARURIYATI

Yadgarov Akram Akbarovich

Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Abdulxamidova Gulxayo Isroiljonovna

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti Magistratura talabasi

Abstrakt

Ushbu maqolada agrosanoat majmui tarmoqlariga jiddiy talofat yetkazuvshi tabiiy-iqlim va iqtisodiy mazmundagi xatarlarning kushayishi bilan bog'liq muammolarga tez-tez dush kelishlari hamda bu kabi muammolardan sug'urtalash orqali moliyaviy talofatlardan himoyalashda sug'urtaning rolini oshirish zaruriyati asoslab berilgan.

Key words: agricultural insurance, agricultural crops, insurance premium, insurance liability, insurance compensation, insurance reforms.

Agrosanoat majmuida muhim bozor infratuzilmasi bo'lmish sug'urtani rivojlantirmasdan turib, iqtisodiyotni barqarorligini ta'minlash mumkin emas, shuning uchun qishloq xo'jaligi korxonalarining barqarorligi ko'p jihatdan sug'urta tizimini nechog'lik rivojlanganligi bilan chambarchas bog'liq, ya'ni ularga bozor sharoitida ehtiyojlariga qarab barcha zarur xizmatlarini ko'rsata oladigan zamonaviy sug'urta xizmatlarini keng rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Chunki, qishloq xo'jaligidagi fermer va dexqon xo'jaliklari faoliyati samaradorligiga ob-havoning keskin o'zgarishi bilan har-xil tabiiy ofatlar natijasida yetkazilgan zarar bevosita ta'sir etadi. Oxirga yillarda qishloq xo'jaligida sug'urta munosabatlarini keng rivojlantirish bo'yicha bir qator izlanishlar olib borilish bilan birga uning amaliy jihaatlariga ham keng e'tibor berildi.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan¹.

¹ O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi"gi PF-4947-sonli Farmoni.





O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 iyundagi "Paxta xom ashyosi va boshqoli don ekinlarining bo'lg'usi hosilini sug'urtalash tizimini takomillashtirish to'g'risida" 505-sonli qarori² hamda 2019 yil 30 sentyabrdagi "Aholi xonadonlarida va chorvachilik yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda parvarishlanayotgan chorva hayvonlarini sug'urta qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 830- sonli qarorlari³ qishloq xo'jaligida sug'urta tizimini keng rivojlantirishga qaratilgan muhim huquqiy-me'yoriy xujjatlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning tashabbuslari bilan qabul qilingan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi hamda 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-sonli qaroriga⁴ muvofiq yangi tahrirdagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonun ishlab chiqildi. Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 23-noyabrda imzolandi hamda **2022-yil 25-fevraldan boshlab** kuchga kirdi⁵.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan **2022 yil 28 yanvarda "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"**gi PF-60-sonli farmon imzolandi. Taraqqiyot strategiyasining uchinchi yo'nalishi bo'lgan – Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlardan biri sifatida tegishli vazirliklarga qishloq xo'jaligida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish va sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish, shu jumladan «Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urtalash to'g'risida"gi qonunni qabul qilish masalasini ko'rib chiqish vazifasi (30-maqсад) belgilangan⁶.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 iyundagi "Paxta xom ashyosi va boshqoli don ekinlarining bo'lg'usi hosilini sug'urtalash tizimini takomillashtirish to'g'risida" 505-sonli qarori.

³ 2019 yil 30 sentyabrdagi "Aholi xonadonlarida va chorvachilik yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda parvarishlanayotgan chorva hayvonlarini sug'urta qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 830- sonli qarori.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-sonli qarori.

⁵ "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 23 noyabrda yangi tahrirda qabul qilingan qonuni.

⁶ O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.





Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga e'tiborni oshirish muhim masalalardan biridir. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xususan oziq-ovqat mahsulotlarini import qiluvchi mamlakatlar uchun yuqori darajadagi asosiy xavf bu oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash siyosati sifatida jiddiy vaziyatni yuzaga keltiradi.

Agrar tarmoq korxonolari tomonidan qishloq xo'jaligi ekinlaridan xususan, paxta, g'alla, meva-sabzavot, poliz, kartoshka va uzum mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda tarmoqni bevosita turli kutilmagan va stixiyali hodisalardan sug'urtaviy himoyalashni takomillashtirishni talab etadi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida 2020 yilning yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari mahsulot (xizmat)larning umumiy hajmi 260,3 trl.so'mni, shu jumladan dehqonchilik va chorvchilik, ovchilik va va ushbu sohlarda ko'rsatilgan xizmatlar - 258,1 trln.so'mni, o'rmon xo'jaligi – 6,7 trln.so'mni, baliqchilik xo'jaligi 1,8 trln.so'mni tashkil qildi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning yagona yo'li sifatida, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish jarayonida resurslar ta'minoti, urug'lik va mineral o'g'itlar yetkazib berish, daladan iste'molchigacha hamda ichki va tashqi bozorlarga mahsulotlarni yetkazib berish bog'liq holatlarda turli xavf-xatarlar yuzaga kelishi mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimiz sug'urta tashkilotlari oldiga katta ma'suliyatli vazifani quymoqda. Har qanday sharoitda ham qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishdagi asosiy omillardan biri sifatida ishonchli sug'urta xizmatlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shu jihatdan mamlakatimizda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni va aholi hayoti hamda mol-mulkini sug'urtalash borasida jadal ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini sug'urtalash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida sug'urta tashkilotlarining sug'urta bozoridagi o'rni va mavqei ortib bormoqda. Shu jihatdan, sug'urta bozorida ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari hajmi va sug'urta qamrovi darajasi ortib bormoqda.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini davom ettirish, aholini o'z vaqtida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash asosida oziq-ovqat xavfsizligini oldini olish va bu jarayonni sug'urtaviy himoyalash muhim vazifalardan biridir.





“O‘zagrosug‘urta” aksiyadorlik jamiyatining asosiy mijozlari bo‘lgan qishloq xo‘jaligi korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari hamda qishloq aholisi hisoblanadi. “O‘zagrosug‘urta” AJ tomonidan mijozlarni turli xil tabiiy ofat va baxtsiz hodisalar oqibatida yuzaga keladigan holatlardan sug‘urta qilishda muayyan ishlar olib borilmoqda. “O‘zagrosug‘urta” AJ tomonidan tabiiy ofatlar natijasida ko‘rilgan zararlarni qoplash maqsadida 2020 yil holatiga ko‘ra, jamiyat va uning hududiy filiallari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar natijasida jami 1475649 ta yuridik va jismoniy shaxslar bilan sug‘urta shartnomalari tuzilgan bo‘lib, unga ko‘ra 178,2 mln.so‘m sug‘urta mukofotlari yig‘ilgan. “O‘zagrosug‘urta” AJ tomonidan sug‘urtalanuvchilar tomonidan ko‘rilgan zararlarni qoplash maqsadida 91,3 mln.so‘m miqdorida sug‘urta to‘lovni to‘lab berildi.

“O‘zagrosug‘urta” AJ tomonidan fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini sug‘urtalash bo‘yicha jami 56,3 mln.so‘m sug‘urta mukofotlari kelib tushgan bo‘lib shundan paxta hosilini sug‘urtalash bo‘yicha 34,9 mln.so‘m va g‘alla hosili sug‘urtasi bo‘yicha 21,1 mln.so‘m sug‘urta mukofotlari yig‘ilgan. Ushbu davrda fermer xo‘jaliklarining tabiiy ofatlar va boshqa turdagi kutilmagan stixiyali hodisalardan ko‘rilgan zararlarni qoplash maqsadida to‘langan sug‘urta to‘lovni 44,4 mln.so‘mni tashkil etgan.

Umuman olganda aholini keng ko‘lamli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta‘minlash hamda mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini oldini olishda sug‘urtaviy himoyalashni yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda. Fikrimizcha, qishloq xo‘jaligini sug‘urtaviy himoyalash tizimini rivojlanishi qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtirish hajmini oshirishda va ularning iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashda rag‘batlantiruvchi moliyaviy dastak sifatida qo‘llab-quvvatlaydi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, har qanday tahlikali sharoitda ham aholini birlamchi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashda qishloq xo‘jaligini rivojlanishini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini keng joriy etish, qishloq xo‘jaligini sug‘urtalashning ma‘muriy usullaridan raqamli sug‘urtalash usullariga o‘tish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini hosilini sug‘urtalashda indeks sug‘urtalashni joriy etish, qishloq xo‘jaligida tabiiy xavf-xatarlarni identifikatsiyalash asosida sohaga innovatsion yutuqlarni joriy qilish, aholini oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash maqsadida yangi turdagi ixtiyoriy sug‘urta turlarini ishlab chiqish va yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini yo‘qotishni oldini olishga erishish,





qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'urtalashda faqatgina hosilni olishda javobgarlik mavjud bo'lib, bu jarayonni ekishdan tortib to yetkazib berish, qayta ishlashga bo'lgan davrgacha sug'urtalash javobgarligini amalga oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Олий Мажлисга Мурожаатномаси, 29 декабрь, 2020 йил. Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий сайти: <http://www.press-service.uz>.
2. Ginder M, Spaulding A.D, Tudor K.W, Winter J.R. 2009. Factors affecting crop insurance purchase decisions by farmers in northern Illinois. *Agricultural Finance Review*, 69, 113–125.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi// Xalq so'zi, 29 dekabr, 2018 yil.
4. A.Yadgarov. (2020). AgroInsurance-As A Mitigating Financial Lever For Climate Change In Agriculture. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(7), 2251 - 2258. <http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/17501>
5. A.Yadgarov, A. Rakhimov. Reforms on the development of the livestock sector and insurance protection in Uzbekistan. Published online: 19 March 2021. *E3S Web of Conferences* 244, 12012 (2021) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202124412012>
6. A.Yadgarov, I.Xotamov, X.Uktamov, M.Maxmudov, R.Najmiadinov, G'.Yuldashev. Prospects for the Development of Agricultural Insurance System. *WEB OF SCIENCE. Alinteri Journal of Agriculture Science* (2021) 36(1): 602-608/ e-ISSN: 2587-2249. info@alinteridergisi.com
7. A.Yadgarov. The importance of using the agricultural insurance system in increasing the volume of agricultural production in pandemic conditions. *SAARJ Journal on Banking & Insurance Research (SJBIR)* ISSN: 2319-1422 Vol.9, July 2020, Impact Factor: SJIF 2020 = 7.126. 31-37 page. <https://saarj.com/wp-content/uploads/sjbir-july-2020-full-journal>
8. A.Yadgarov. Issues of food safety on the basis of agricultural insurance. *The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering* ISSN: 2689-1018. JULY 2020. Page No.: 43-52 Volume-II Issue-VII PUBLISHED: 30 JULY 2020. <https://usajournalshub.com/index.php/tajabe/article/view/576/539>





ISSN (E): 2181-4570

9. Saidova, M., Yadgarov, A., Kodirova, D., Turdialiev, J., Embergenova, G. Econometric analysis of the influence of climate characteristics on the ecological condition of soils and the productivity of agricultural crops. E3S Web of Conferences, 2023, 377, 03017. https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/abs/2023/14/e3sconf_icecae2022_03017/e3sconf_icecae2022_03017.html

